

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI
O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari davlat va huquq asoslari o‘quv fani o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning davlat va huquq asoslari o‘quv fani, kasb standartlari va pedagogik mahorat bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*), *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Davlat va huquq (1–10-savollar)		
Shaxs, jamiyat, davlat va huquq	–shaxs, jamiyat, davlat va huquq munosabatlari(tushunchalarini)ni aniqlay olish; –davlat (shakllari, funksiyalar) va huquq bilan bog'liq ma'lumotlarni to'g'ri ajrata olish; – axloq va huquq, huquq normasi, manbalari va tarmoqlarini bir-biridan farqlay olish; – huquqiy munosabatlarni tarkibiy qismlarini aniqlay olish; – huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik turlarini aniqlay olish; –voyaga yetmaganlarning huquq va burchlarini aniqlay olish; –voyaga yetmaganlarning javobgarlikka tortish asoslarini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qaysi huquqiy norma qo'llanishini to'g'ri tanlay olish; – huquqiy munosabatlarni tahlil qila olish; – yuridik termin va qoidalarni izohini topish hamda berilgan vaziyatlarda ularni to'g'ri qo'llash.	10
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari (11–18-savollar)		

Konstitutsiya va huquqiy davlat	–Konstitutsiya va huquqiy davlatning belgilarini farqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonlarini aniqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bo‘limlari, boblari va ularga tegishli qoidalarini aniqlash, ushbu qoidalarini vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash hamda tahlil qila olish; –O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini ajrata olish; – fuqarolik jamiyati va davlat hokimiyati tizimini faoliyatini aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish; –turli xil vaziyatlarda Konstitutsiya va huquq normalarini to‘g‘ri qo‘llash, tahlil qilish, yechimini tanlash; – yuridik terminlarni aniqlash, qoidalarini amalda qo‘llash, taqqoslash va dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlay olish.	8
3. Xalqaro huquq asoslari (19–20-savollar)		
O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat	– xalqaro hamjamiyat va xalqaro huquqning vujudga kelishini tushunish; –Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini aniqlay olish; –O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini aniqlash va tahlil qilish; – O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish va yo‘qotish asoslarini aniqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolarining huquqlari va burchlarini farqlay olish; –vaziyatlarga mos huquq normalarini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish; – yuridik termin va qoidalarini izohini topish hamda berilgan vaziyatlarda ularni to‘g‘ri qo‘llash.	2
4. Ma’muriy huquq asoslari (21–22-savollar)		

Ma'muriy huquq	–ma'muriy huquqiy munosabatlarni aniqlay olish; –davlat xizmatlarining turlari va foydalanish asoslarini aniqlay olish; –ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ustidan shikoyat qilish tartibini aniqlay olish; –ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy javobgarlikni aniqlay olish; –ma'muriy-huquqiy nizolarni aniqlash va ularni ko'rib chiqish tartibini topish; –ma'muriy jazo va uning turlarini aniqlash; –huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni aniqlay olish; –kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarga mos qonun normalarini to'g'ri tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish.	2
5. Fuqarolik huquqi asoslari (23–24-savollar)		
Fuqarolik - huquqiy munosabatlar	–fuqarolik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishini topish, fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlay olish; – fuqarolik huquqiy munosabat subyektlari va obyektlarini ajrata olish; –mulkiy va nomulkiy munosabatlarni bir-biridan farqlash; –majburiyat va majburiyat turlarini aniqlay olish; –iste'molchi huquqlari va intellektual mulk bilan bog'liq munosabatlarni aniqlash va vaziyatlarda tahlil qilish; –fuqarolik ishini sudda ko'rish bosqichlarini aniqlay olish; –vaziyatlar asosida fuqarolik qonunchiligi normasini to'g'ri tanlash, harakatga keltirish; – yuridik termin va qoidalarni izohini topish hamda berilgan vaziyatlarda ularni to'g'ri qo'llash.	2
6.Mehnat huquqi asoslari (25–26-savollar)		

Mehnat huquqi	–mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlay olish; –aholini ishga joylashtirish, mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish tartibini aniqlay olish; –ish vaqti, dam olish vaqti va mehnatga haq to‘lash tartibini aniqlay olish; –intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish asoslarini topish; –ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan mehnatga oid nizolarni hal etish tartibini aniqlay olish; –mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadigan vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy yechimni tanlash, tahlil qilish; –qoidalarini izohini topish va berilgan vaziyatlarda ularni to‘g‘ri qo‘llash.	2
7. Oila huquqi asoslari (27–28-savollar)		
Oilaviy - huquqiy munosabatlar	–oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlay olish; –nikoh, uni tuzish, tugatish asoslarini topish; – nikoh shartnomasi, aliment majburiyatlarini aniqlay olish; –er-xotinning oila qonunchiligidagi huquqlari, majburiyatlari, bolalarning huquqlari va majburiyatlarini farqlay olish; –vaziyatga mos oila qonunchiligi normasini tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish; – qoidalarini izohini topish va berilgan vaziyatlarda ularni to‘g‘ri qo‘llash.	2
8. Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi (29–33-savollar)		

Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi	–jinoyat va jinoyat protsessual huquqi, kriminologiya bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlay olish; –jinoyat va jinoyat protsessual huquqi orqali tartibga solinadigan harakatlarni topish; –jinoyatning belgisi, tarkibi va ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlay olish; – jinoyat protsessi tushunchasi, prinsiplari va ishtirokchilarini farqlay olish; – jazo va uni tayinlash tartibini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qanday jinoyat tarkibi mavjudligini topish; –vaziyatlarni tahlil qilish va baholash; –yuridik termin va qoidalarni izohini topish hamda berilgan vaziyatlarda ularni to‘g‘ri qo‘llash.	5
9. Ekologiya huquqi asoslari (34–35-savollar)		
Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik turlari	–atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid bo‘lgan munosabatlarni tushunish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarlikni aniqlay olish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarliklarni boshqa huquqbuzarliklardan farqlay olish; –biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini topish; –atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy chorani(yechimni) tanlash.	2

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash, o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish, hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta

2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim paradigmalarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari (yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma'ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an'anaviy dars, noan'anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;	7
--------------------------------------	--	----------

	– ta’limda baholashning asosiy tushunchalari (baholash maqsadi, tamoyillari, yondashuvlari, baholash turlari (formativ, diagnostik, summativ baholash), metod va texnologiyalari, vositalari)ni bilish, berilgan vaziyatga mosini tanlash va baholash bo’yicha qabul qilingan qarorlarning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish; – raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar (emaktab.uz va boshqalar) va resurslaridan (Microsoft Office dasturlari, internet tarmog’idan) foydalanishni bilishi.	
2.2. Huquq fanini o’qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o’qitish yondashuvlari, metodikasi, o’qitish usullari va metodlarini bilish va farqlash, berilgan vaziyatga mosini tanlash, hamda o’qitish bo’yicha berilgan ta’limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo’llanilishini tushunish	8 ta
2	Qo’llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo’llay olish	35 ta
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7 ta

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to’g’ri javobga 2 ball, noto’g’ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko’chirish, yordam so’rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar*

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi Lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi Lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi Lex.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi Lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni Lex.uz.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik to‘g‘risida”gi qonuni Lex.uz.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni Lex.uz.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi”gi qonuni Lex.uz.
15. Saydullayev Sh. va b. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024.
16. Bekov I. va b. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024.
17. Tuychiyeva X. va b. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
18. Sodikov A. va b. Davlat va huquq 11-sinf darsligi. –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2025.
19. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi darslik. –Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2021.
20. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi darslik. –Toshkent: Adolat, 2018.

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.
6. Tuychiyeva H. 10-sinf davlat va huquq asoslari o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, Tuychiyeva H, Hakimov A, Ahmedova M va b. –Toshkent Respublika ta’lim markazi, 2023.

Izoh: davlat va huquq asoslari fani bo'yicha test topshiriqlarini shakllantirishda normativ-huquqiy hujjatlarga amaldagi o'quv dasturlari va darslikda keltirilgan mavzular doirasida murojaat qilinadi. Test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- <https://lex.uz/> sayti)

***Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.